
Chetdan kelgan hasharchilar tomonidan hududning obodonlashtirilishi o'sha yerdagi mas'ullarga berilgan salbiy bahodir

Farg'ona shahrida hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joylardagi mazkur ishlarni jadallashtirish maqsadida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan har bir mahallaga mas'ullar birlashtirilgan, shuningdek Ishchi guruhi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlardan fuqarolar mamnun bo'lmoqdalar. Albatta, bu borada kelib tushayotgan murojaatlar hamda o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun mablag' hamda muddat talab etiladi. Asosiysi har bir amalga oshirilishi belgilangan ishlar uchun chora-tadbir tuzilib, qat'iy nazoratga olingan. Bu esa kun sayin shahrimizning obod bo'layotganida aks etmoqda.

Afsuski, ayrim hududlarda olib borilayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlamayotgan, islohotlarni amalga oshirishda faol bo'lmayotgan mas'ullar hamda aholi vakillarining hali hanuz borliklari ish samaradorligini susaytirmoqda. Joylardagi o'zgarishlar va mas'ullarning faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida shaxsan shahar hokimining o'zi korxonalar va tashkilotlar, ta'lim va tibbiyot muassasalari hamda mahalla fuqarolar yig'inlariga tashrif buyurmoqda.

Vosiljon Nazarovning "Sharof Rashidov" mahalla fuqarolar yig'iniga tashrifi davomida ham har bir hudud ko'zdan kechirildi. Mazkur mahallada fuqarolar asosan ko'p qavatli uylarda istiqomat qilishadi. Mahalladagi obodonlashtirish ishlari afsuski ko'ngildagidek emas.

Yangi ekilgan daraxt ko'chatlari parvarish etilmaganidan qurib ulgurgan, borlari esa oqlanmagan, butalmagan. Yerga amal kirganiga uch oy bo'lgan bo'lsada, tomorqalar bo'sh. Unumli foydalanilmagan. Har bir ko'p qavatli uylar atrofi betartib shoh-shabbalar va begona o'tlar bilan "bezangan".

Hududdagi chiqindi yig'ish joylari ham tartibsiz, o'z holiga tashlab qo'yilgan. Yarmida qoldirilgan qurilishlar hamda bo'yalmagan devorlar ham ko'cha husnini buzmoqda.

Albatta, mas'ullarning o'z ishlariga havas va ishtiyoq bilan yondoshmaganliklari hamda shu hududlarda yashayotgan fuqarolarning e'tiborsizligi, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan qadriyatimiz - umumxalq hasharining yo'qolib ketganligi "Sharof Rashidov" mahallasining bugungi holatga kelishiga sabab bo'lgan.

Shahar hokimi mahallada keng ko'lamlil obodonlashtirish ishlarini olib borish uchun mas'ullarga kerakli tavsiyalar hamda topshiriqlar berdi.

O'ylaymizki, mahallaning obod bo'lishiga 40 ta ko'p qavatli uylarda yashayotgan 3 mingdan ortiq fuqarolar ham o'z hissalarini qo'shadilar. Chetdan kelgan hasharchilar tomonidan mahallaning obodonlashtirilishi esa mas'ullarga berilgan salbiy baho bo'lib, bu esa ularning ham ishchanligini oshiradi, degan umiddamiz.

2022-05-19 10:11:23